



UO'K: 633.854.54:631.526.3:631.5

MOYLI ZIG'IR NAVLARI URUG'INING SIFAT KO'RSATKICHLARIGA EKISH ME'YORLARINING TA'SIRI

Yuldasheva Zulfiya Kamalovna 

professor

e-mail: zkamalovna@mail.ru

Ismatullaeva Azizaxon Asqarjon qizi 

tayanch doktorant

e-mail: Azizaxonismatullayeva@mail.com

Toshkent davlat agrar universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada moyli zig'ir navlari urug'ining sifat ko'rsatkichlariga ekish me'yorlarining ta'siri o'rganilib, gektariga 5,0 mln.dona miqdorida urug' ekilgan variantda Bahorikor nazorat navida 785,3 l/gramm urug' naturasi bo'lib, Fliz naviga nisbatan 52,8 gramm, Biryuza naviga nisbatan 56,8 grammga yuqori bo'lishi aniqlandi. Biryuza navining urug'ida ko'p moy to'planishi aniqlanib, ekish me'yorlari bo'yicha 50,3%, 50,5%, 50,0% ni tashkil qildi. Navlar orasida Bahorikor nazorat va Fliz navlarida urug' tarkibidagi oqsil miqdori Biryuza, Danik va RFN navlariga nisbatan yuqori bo'ldi. Aksincha ekish me'yorini oshirilgan variantlarda uglevod miqdorining oshishi aniqlandi.

Kalit so'zlar: zig'ir, me'yor, urug', natura, oqsil, uglevod, moyli urug', rivojlanish, o'sish, shrot.

Аннотация. В данной статье изучено влияние норм высева на качественные показатели семян сортов масличного льна, и установлено, что в варианте с высевом семян в количестве 5,0 млн.шт/га у контрольного сорта Бахорикор семенная натура составила 785,3 л/грамм, что на 52,8 грамма выше, чем у сорта Флиз, и на 56,8 грамма выше, чем у сорта Бирюза. Установлено, что в семенах сорта Бирюза накапливается много масла, которое по нормам высева составило 50,3%, 50,5%, 50,0%. Среди сортов содержание белка в семенах у сортов Бахорикор-контроль и Флиз было выше, чем у сортов Бирюза, Даник и РФН. Напротив, в вариантах с повышенной нормой высева выявлено повышение содержания углеводов.

Ключевые слова: лён, норма, семена, натура, белок, углевод, масличные семена, развитие, рост, шрот.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

Abstract. This article examines the influence of sowing rates on the seed quality indicators of oilseed flax varieties, and it is established that in the variant where seeds were sown at a rate of 5.0 million units/ha, the seed content of the control variety Bahorikor was 785.3 l/gram, which is 52.8 grams higher than the Fliz variety and 56.8 grams higher than the Biruziya variety. It was established that a large amount of oil accumulates in the seeds of the "Biruza" variety, accounting for 50.3%, 50.5%, and 50.0% of the sowing rates. Among the varieties, the protein content in the seeds of the Bahorikor-Control and Fliz varieties was higher than that of the Biruza, Danik, and RFN varieties. Conversely, in variants with increased sowing rates, an increase in carbohydrate content was identified.

Keywords: flax, norm, seeds, nature, protein, carbohydrate, oilseeds, development, growth, meal.

KIRISH

Hozirda dunyodagi yetakchi davlatlar amaliyotida moyli zig'irni yetishtirish bo'yicha tuproq-iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda ekish muddati, me'yorlari va agrotexnik tadbirlarning bir qancha zamonaviy usullarini ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunda moyli zig'irning hosil sifatлари yuqori va qayta ishlashga mos bo'lgan navlarini to'g'ri tanlash, navlarning hosili va sifatini oshirishda ekish muddatlari, me'yorlari, ularni parvarishlashda qo'llaniladigan resurstejamkor agrotexnologiyalarni har bir hududning tuproq-iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda belgilash bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Respublikada 2024 yil hosili uchun barcha toifa madonlarda moyli ekinlarni yetishtirish to'g'risidagi ma'lumotida moyli zig'ir 17086 gektar lalmikor maydonlarga ekish mo'ljallangan. Shu sababli, aholini iste'mol moyi bilan ta'minlash uchun moyli zig'irning maqbul urug' ekish me'yorlarini belgilash bo'yicha olib boriladigan ilmiy-tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.

O'simlik moyi olishning muhim zahirasi sifatida zig'ir kabi moyli ekin xizmat qilishi mumkin. Bu ekin urug'larning yuqori potensial hosildorligi, yog' va oqsilning yuqori miqdorda mavjudligi hamda aminokislota tarkibining optimal muvozanatini o'zida muvaffaqiyatli mujassam etgan.

Zig'ir moyi boshqa moylarga nisbatan inson iste'mol rasioni uchun zararli bo'lgan to'yingan yog' kislotalarining eng kam miqdorini o'z ichiga oladi. Zig'ir urug'ining noyobligi yana shundaki, u tarkibida linolen kislotasi ko'p bo'lib, bu modda inson organizmiga kirgach, xolesterinni chiqarib tashlashga yordam beradi, oqsil va yog'lar almashinuvini kerakli darajada saqlaydi, ba'zi yurak kasalliklarining oldini oladi, qon bosimini barqarorlashtiradi, qon tomirlarining spazmalarini yo'qotadi, qon ivishiga to'sqinlik qiladi va immunitet tizimini faollashtiradi. Bundan tashqari, yog' kislotalari bilan birgalikda miya faoliyati va ko'rish qobiliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [1,2].





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

Odatda yirik urug'larning tarkibida moy miqdori ko'p bo'ladi. Mexanizatsiyaga mos bo'lishi uchun urug'i to'kilmaydigan, ko'saklari balandroq joylashadigan navlarni yaratish maqsadga muvofiqdir [3]. Zig'ir urug'ini qayta ishlash mahsulotlari (kunjara va shrot) qishloq xo'jalik hayvonlari va parrandalar rasionining yuqori energiyali va oqsilli tarkibiy qismlari hisoblanadi. Xususan, 100 kg kunjarada 115 ozuqa birligiga qadar va 28,5 kg hazm bo'ladigan oqsil, 100 kg shrotida esa 10 ozuqa birligi va 28,9 kg hazm bo'ladigan oqsil mavjud [4].

Akademik I. I. Sinyagin [1975] o'z tadqiqotlarida shunday xulosaga kelgan: oziqlanish yuzasi ortishi yoki kamayishi natijasida o'simliklarning morfologik belgilaridagi o'zgarishlar juda yaqqol namoyon bo'ladi. Mahsuldor o'simliklar qalinligining ortishi odatda ularning bo'yining o'sishiga olib keladi. Ma'lum bir chegaragacha bu o'sish davom etadi, ammo ekin zichligi sezilarli darajada oshgach, o'simliklarning o'sish sur'ati sekinlashadi. Oziqlanish yuzasining o'zgarishidan kelib chiqadigan o'simlik bo'yidagi o'zgarishlar, asosan, yorug'lik sharoitlariga bog'liq bo'ladi. Poyaning yo'g'onligi, ya'ni yotib qolishga chidamliligi oziqlanish yuzasi kengaygani sari ortadi. Boshqa tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, jadal tuplanadigan navlardan nisbatan kam ekish me'yorlarida ham yuqori hosil olish mumkin. Aksincha, kuchsiz tuplanadigan navlardan esa zich ekilganda ham yuqori hosil olish mumkin [5, 6].

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Moyli zig'ir navlarining o'sishi rivojlanishi, hosildorligi va sifat ko'rsatkichlariga urug' ekish me'yorlarini ta'sirini o'rganish bo'yicha olib borilgan dala tajribalari Toshkent viloyatining sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlari sharoitida 2023 yilda o'tkazildi. Tadqiqotning ob'ekti sifatida moyli zig'irning lalmikor yerlar uchun Davlat reestriga kiritilgan Bahorikor navi va Rossiyaning Biryuza, Fliz, Danik va RFN navlari uch xil ekish me'yorida 4,0, 5,0, 6,0 mln.dona/ga urug' ekilib, qiyosiy o'rganildi. Tajribada moyli zig'ir navlari takroriy ekin sifatida ekilganda 15 ta variantdan iborat bo'ldi. 60 ta delyanka, paykalchalar 12 qatorli, qator orasi 15 sm, uzunligi 10 m.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Urug' naturasi - bir litr hajmdagi urug'ning grammlar bilan o'lchanadigan og'irligi. Bu atama ko'pincha moyli ekinlar urug'lariga nisbatan qo'llaniladi. Urug'larning sifatini, jumladan, moydorligi va unuvchanligini aniqlashga yordam beradi.

Zig'ir urug'i ekish me'yori kam bo'lgan variantda yirik, ekish me'yori 6,0 mln.dona/ga oshirilgan variantda nisbatan maydaroq bo'lganligi uchun urug' naturasi variantlar bo'yicha $728,5 \pm 92$ g/l atrofida bo'lishi aniqlandi.

Urug' naturasi ekish me'yorini 6,0 mln.dona/ga oshirilgan variantda tajribadagi barcha navlarda yuqori bo'lishi aniqlanib, gektariga 5,0 mln.dona urug' sarflangan variantda nisbatan kamroq bo'lishi kuzatildi.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

Bahorikor nazorat navining urug' i tajribada o'rganilgan navlarga nisbatan maydaroq bo'lganligi uchun urug' naturasi yuqori bo'lib, gektariga 4,0 mln.dona miqdorida urug' ekilgan variantda 804,6 l/gramm bo'lib, ekish me'yori 5,0 mln.dona qilib belgilangan variantda urug'larning yirikroq bo'lishi evaziga 19,3 grammga kamayib 785,3 l/grammni tashkil qilgan bo'lsa, ekish me'yorini 6,0 mln.donaga oshirish yana urug' naturasining oshishiga olib keldi va 820,6 l/grammni tashkil qildi.

Biryuza navi urug' naturasi tajribada o'rganilgan navlar urug' naturasidan kam bo'lishi bilan ajralib turdi. Ushbu navning urug'lari yirikroq bo'lib, ekish me'yorlari bo'yicha 749,1, 728,5, 768,1 l/grammni tashkil qilib, ekish me'yori 5,0 mln.dona/ga sarflangan variantda ekish me'yori kam bo'lgan variantga nisbatan 20,6 gramm va ekish me'yori oshirilgan variantga nisbatan 39,6 grammga kam bo'lganligi aniqlandi.

Gektariga 5,0 mln.dona miqdorida urug' ekilgan variantda Bahorikor nazorat navida 785,3 l/gramm urug' naturasi bo'lib, Fliz navining ushbu variantiga nisbatan 52,8 gramm, Danik naviga nisbatan 42,7 gramm, Biryuza naviga nisbatan 56,8 gramm va RFN naviga nisbatan 21,1 grammga yuqori bo'lishi aniqlandi.

Moyli zig'ir navlari urug' tarkibidagi moy miqdori ekish me'yorlari oshirilgan variantda bir oz kamayishiga olib keldi. Bahorikor nazorat navi 5,0 mln. dona/ga miqdorida urug' ekilgan variantda urug'dagi moy miqdori 40,7% ni tashkil qilib, ekish me'yori 4,0 mln. donaga kamaygan variantga nisbatan 0,6% ga va ekish me'yori 6 mln. donaga oshirilgan variantga nisbatan 0,3% ga kam moy miqdori to'plashi aniqlandi.

Fliz navida ham yuqoridagi qonuniyat takrorlanib, 5 mln. dona/ga miqdorida urug' sarflangan variantda ekish me'yori kamaygan va oshirilgan variantlarga nisbatan urug'dagi moy miqdori ko'p bo'lganligi kuzatildi. Bunda 49,9% moy bo'lib, kam me'yor sarflangan variantga nisbatan 0,7% va ekish me'yori oshirilgan variantga nisbatan 0,8% ga ko'p moy miqdori bo'lishi aniqlandi. Ushbu navda urug'dagi moy miqdori nazorat navi bo'lgan Bahorikor naviga nisbatan ekish me'yorlari bo'yicha 9,1, 9,2, 8,7% ga ko'p bo'lishi aniqlandi.

Danik navi gektariga 5 mln. dona miqdorida urug' ekilgan variantda urug'dagi moy miqdori 48,6 % ni tashkil qilib, ekish me'yorini 6 mln.donaga oshirilgan variantda 0,6 % ga va ekish me'yori 4,0 mln.dona miqdoriga kamaytirilgan variantga nisbatan 0,2% ga ko'p moy to'plashi kuzatildi.

Tajribada o'rganilgan navlar orasida Biryuza navining urug'ida ko'p moy to'planishi aniqlanib, ekish me'yorlari bo'yicha 50,3%, 50,5%, 50,0% ni tashkil qildi. Ekish me'yori 5,0 mln.dona/ga miqdorida urug' ekilgan variantda ekish me'yori kam bo'lgan variantga nisbatan 0,2% ga va ekish me'yori yuqori bo'lgan variantga nisbatan 0,5% ga yuqori moy miqdori bo'lishi aniqlandi. Ushbu navda urug'larning moy to'plashi Bahorikor nazorat naviga nisbatan gektariga 5,0 mln.dona urug' ekilgan variantda 9,8% ga, Fliz naviga nisbatan 0,6% ga, Danik



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

naviga nisbatan 1,9% ga va RFN naviga nisbatan 3,6% ga moy miqdori ko'proq to'plashi aniqlandi.

Fliz navi urug'ida moy to'plashi Biryuza naviga yaqin bo'ldi, lekin nazorat Bahorikor navida moy miqdori bir muncha kam, ya'ni ekish me'yorlari bo'yicha 10,2%, 9,8% va 9,6% ga kam bo'ldi.

Moyli zig'ir urug'idagi oqsil miqdori urug' tarkibida moy yuqori bo'lganligi uchun kam bo'lishi hamda ekish me'yori oshirilgan variantlarda ekish me'yori kam bo'lgan variantlarga nisbatan yuqori bo'lishi aniqlandi. Moyli zig'ir navlari urug'idagi moy miqdori yuqoriligi sababli urug'lar maydalanib moylar Geksan bilan yuvildi va hosil bo'lgan quruq qoldiq (shrot) da oqsil miqdori aniqlandi.

Olingan natijalarga ko'ra ekish me'yori oshirilgan variantda urug' tarkibidagi oqsil to'planishi va uglevod miqdori, ekish me'yori kam bo'lgan variantlarga nisbatan yuqori bo'lganligi aniqlandi. Tajribada o'rganilgan navlardan Biryuza navining urug'i tarkibidagi oqsil va uglevod miqdori eng kam bo'lgan nav ekanligi, keyingi o'rinni esa Fliz navi egallaganligi aniqlandi. RFN navi urug'ida ham oqsil va uglevod miqdori kam bo'lishi (variantlar bo'yicha 22,5-22,7% va 16,4-17,1%) kuzatildi, lekin Danik va nazorat navida eng ko'p oqsil va uglevod (24,0-26,3% va 16,9-19,2%) to'plashi aniqlandi.

Biryuza navining urug'idagi oqsil variantlar bo'yicha 19,7% ni va uglevod 15,3-16,6% ni tashkil qilgan bo'lsa, Fliz navida bir ozgina ko'proq 21,5% va 15,7-16,4% ni tashkil qildi.

Laboratoriyada 10 gramm shrotdagi oqsil miqdori aniqlandi va quyidagi natijalar olindi: shrotdagi oqsil miqdori Bahorikor nazorat navida tajribadagi navlardan ko'p bo'ldi, eng kam oqsil to'plagan nav RFN navi ekanligi aniqlandi.

Bahorikor navi shrotida ekish me'yorlari bo'yicha 37,0, 37,6, 39,8% oqsil bo'lib, RFN naviga nisbatan ekish me'yorlari bo'yicha 1,5, 1,7, 4,5% ga yuqori bo'lgan bo'lsa, Biryuza naviga nisbatan 3,4, 3,9, 6,5% ga Fliz naviga nisbatan 1,6, 1,6, 4,5% ga ko'proq to'plangan bo'lsa, Danik navining 4,0 va 5,0 mln.dona/ga urug' ekilgan variantlarida nazorat naviga nisbatan 1,6, 1,2% ga yuqori, ammo 6,0 mln.dona/ga urug' sarflangan variantda 1,7% ga kam bo'lganligi aniqlandi.

Moyli zig'irning shrotidagi umumiy uglevod miqdori aniqlanganda ekish me'yori kam bo'lgan variantda moy miqdori ko'p bo'lganligi sababli uglevodlarning bir qismi moy sintezi uchun sarflanishi evaziga uglevod miqdorining bir ozgina kamayishi kuzatildi. Aksincha ekish me'yorini oshirilgan variantlarda uglevod miqdorining oshishi aniqlandi.

Shrotdagi umumiy uglevod miqdori Bahorikor nazorat navida tajribadagi navlardan ko'p, eng kam uglevod to'plagan nav RFN navi ekanligi aniqlandi. Bahorikor nazorat navi shrotida ekish me'yorlari bo'yicha 27,4, 28,4, 29,0% umumiy uglevod bo'lib, RFN naviga nisbatan ekish me'yorlari bo'yicha 2,5, 1,9, 2,2% ga yuqori bo'lgan bo'lsa, Biryuza naviga nisbatan 1,4, 1,3, 0,8% ga, Danik naviga nisbatan 0,4, 0,8, 0,9% ga va Fliz naviga nisbatan 1,6, 2,0, 2,1% ga ko'proq



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

to'planishi aniqlandi. Bundan ko'rinadiki Danik navi umumiy uglevod to'planishi bo'yicha Bahorikor nazorat navi bilan deyarlik bir xil miqdorni tashkil qilgan ekan.

Bir gektar maydondan moyli zig'irdan olinadigan moy miqdorini hisoblash uchun hosildorlikni (gektariga tonna, sentner yoki kilogramm hisobida) urug'dagi moy miqdoriga (foiz hisobida) ko'paytirib, yuzga bo'linadi, litrda chiqarish uchun esa natijani moyning zichligi (taxminan 0,93 kg/m³) ga bo'linib topiladi.

Moyli zig'ir urug'ining namligini aniqlash muhimdir, chunki moyli zig'irning urug'i 8-9% namlikda yaxshi saqlanishi har qanday adabiyotlarda keltirilgan.

1-jadval

Moyli zig'ir navlari urug'ining sifat ko'rsatkichlariga ekish me'yoringing ta'siri

Var.	Navlar nomi	Ekish me'yori, mln. dona/ga	Urug' natu rasi, l/g	Urug' tarkibida					Urug' namligi, %	Bir gektardan moy chiqishi, kg/ga	Bir gektardan moy chiqishi, litr/ga
				moy, %	oqsil, %	uglevod, %	10 gr shrotdagi				
							oqsil, %	uglevod, %			
1	Bahorikor (st)	4.0	804,6	40,1	24,6	18,1	37,0	27,4	5,4	966,4	1039,2
2		5.0	785,3	40,7	24,4	18,5	37,6	28,4	5,0	1078,6	1159,7
3		6.0	820,6	40,4	26,3	19,2	39,8	29,0	4,8	1032,2	1109,9
4	Fliz	4.0	762,8	49,2	21,5	15,7	35,4	25,8	5,5	1348,1	1449,5
5		5,0	732,5	49,9	21,5	15,9	36,0	26,4	5,1	1502,0	1615,0
6		6,0	776,2	49,1	21,6	16,4	35,3	26,9	4,8	1423,9	1531,1
7	Danik	4.0	775,3	48,4	24,2	16,9	38,6	27,0	5,0	1200,3	1290,7
8		5.0	742,6	48,6	24,0	17,2	38,8	27,6	4,9	1317,1	1416,2
9		6.0	800,6	48,0	24,2	17,7	38,1	28,1	4,8	1281,6	1378,1
10	Birroza	4.0	749,1	50,3	19,7	15,3	33,6	26,0	5,6	1448,6	1557,7
11		5.0	728,5	50,5	19,7	15,9	33,7	27,1	5,2	1600,9	1721,3
12		6.0	768,1	50,0	19,7	16,6	33,3	28,2	5,1	1515,0	1629,0
13	RFN	4.0	784,6	46,6	22,5	16,4	35,5	25,9	5,9	1146,4	1232,6
14		5.0	764,2	46,9	22,5	16,7	35,9	26,5	5,7	1266,3	1361,6
15		6.0	805,6	46,3	22,7	17,1	35,3	26,8	4,2	1227,0	1319,3

Laboratoriyada moy miqdorini aniqlash uchun bizga moyni maksimal darajada siqib olish uchun optimal namlik, ya'ni 5% namlik darajasi muhimligini, haddan tashqari nam yoki haddan tashqari quruq urug'lardan moy olish jarayoni qiyinlashishini va sifatiga ta'sir qilishini tushuntirishdi. Shuning uchun moy olish



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

jaraënida urug'ning namligi ham aniqlandi. Tajribamizdagi variantlarda zig'ir urug'i namligi o'rtacha 4,2-5,7% ni tashkil qildi.

Bir gektar maydondan moy chiqishi Biryuza navida ekish me'yorlari bo'yicha 1448,6, 1600,9 va 1515,0 kg/ga ni tashkil qilib, albatta ushbu ko'rsatkich olingan hosilga bog'liq bo'lgan. Keyingi o'rinda Fliz navi bo'lib, ekish me'yorlari bo'yicha 100,5, 98,9 va 91,1 kg miqdorida kam moy olishga erishilgan. Nazorat Bahorikor navidan bir gektar maydondan 966,4 kg dan 1078,6 kg gacha moy olishga erishildi. Danik navidan 1200,3 kg.dan 1317,1 kg gacha moy olingan bo'lsa, RFN navidan 1146,4 kg dan 1266,3 kg gacha moy olishga erishildi.

Bir gektardan moy chiqishi litr hisobida ham hisoblandi, bunda moyli zig'ir moyining zichligi $0,93 \text{ kg/m}^3$ ekanligi hisobga olindi. Bunda ham yuqoridagi bir gektar maydondan yuqori moy olingan variant va navlarda kuzatilgan qonuniyat takrorlandi, ammo moy zichligi e'tiborga olingani uchun litr miqdorida ko'proq ko'rsatkichni oldik.

Bahorikor nazorat navidan bir gektar yerdan moy olish tajribadagi barcha navlardan kam bo'lib, ekish me'yori bo'yicha 1039,2, 1159,7 va 1109,9 litrni tashkil qildi va Biryuza naviga nisbatan ekish me'yorlari bo'yicha 518,5, 561,6 va 519,1 litr miqdorida kam moy olinganligi aniqlandi. Fliz navidan ekish me'yorlari bo'yicha Biryuza navi ekish me'yorlariga nisbatan 108,2, 106,3, 97,9 litr kam moy olinishi kuzatildi. Danik va RFN navlaridan Biryuza va Fliz naviga nisbatan bir oz kam, ammo nazorat naviga nisbatan ko'proq moy olinishi aniqlandi.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida moyli zig'ir navlari urug'ining sifat ko'rsatkichlariga ekish me'yorlarining sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Tadqiqotda o'rganilgan navlar orasida Biryuza navi urug' tarkibidagi moy miqdorining yuqoriligi bilan ajralib turib, ekish me'yorlari bo'yicha 50,0-50,5 % moy to'plashi qayd etildi.

Urug' naturasi ko'rsatkichi Bahorikor nazorat navida yuqori bo'lib, gektariga 5,0 mln dona urug' ekilgan variantda 785,3 g/l ni tashkil etdi. O'rganilgan navlar orasida Biryuza navining urug'lari yirikroq bo'lgani sababli urug' naturasi nisbatan past ko'rsatkichlarga ega bo'ldi.

Moy miqdori bo'yicha eng yuqori natijalar Biryuza va Fliz navlarida kuzatildi. Bir gektar maydondan olinadigan moy miqdori ham ushbu navlarda yuqori bo'lib, Biryuza navida gektariga 5,0 mln dona urug' ekilgan variantda 1600,9 kg yoki 1721,3 litr moy olish mumkinligi aniqlandi.

Urug' tarkibidagi oqsil va uglevod miqdori ekish me'yorining ortishi bilan ko'payish tendensiyasini namoyon etdi. Bahorikor va Danik navlari oqsil hamda uglevod miqdorining yuqoriligi bilan ajralib turdi. Shrot tarkibidagi oqsil miqdori ham Bahorikor navida yuqori bo'lib, bu navning yem-xashak sifatidagi ahamiyatini oshiradi.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

Tadqiqot natijalariga ko'ra, sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar sharoitida moyli zig'irning yuqori sifatli va moydor urug' hosili olish uchun Biryuza va Fliz navlarini gektariga 5,0 mln dona urug' ekish me'yorida yetishtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu ekish me'yori urug' sifati, moydorlik darajasi hamda bir gektardan olinadigan moy miqdori bo'yicha eng maqbul natijalarni ta'minladi.

ADABIYOTLAR

1. Илина З.М., Батова В.Н. [и др.] Рынок продовствия и сыры: Лен/Перевозников; Ин-т экономики Нац.акад.наук Беларуси, Центр аграр.экономики. – Минск, 2005-С. 17-24.
2. Голуб И.А., Андроник Э.Л. и другие. Современное состояние селекции лна масличного (*Linum usitatissimum* L.) /Земляробства и ахова раслин . -2011.- № 1.- С.71-73.
3. Луков М.К. Мойли экинлар селекцияси ва уруғчилиги (Лекциялар курси) 2012 87-б.
4. Рукшан Л.В. Оценка качества разных сортов лна белорусской селекции / Научно-практические аспекты технологий возделывания и переработки масличных культур: материалы междунар. науч.-практ. конф. (Рязан, 15-16 февраля 2013 г.) / под ред.-Рязан: ФГБОУ ВПО РГАТУ, 2013.- 396 с. – С. 248-255.
5. Синягин И.И. Площади питания растений .М.:Росселхозиздат, 1975. – 384 с.
6. Ничипорович А. А. Энергетическая эффективность и продуктивность фотосинтезирующих систем как интегральная система / Физиология растений. – 1978. – Т.25. – С. 922-937.